UO‘K 81` 28

O‘ZBEK TILINING DIALEKTOLOGIK USTQURMASI

Z.M. Qodirov

Maqolada tilshunoslikning eng to‘ng‘ich sohasi hisoblangan dialektologiya, o‘zbek dialektologiyasi, uning bugungi ahvoli va o‘zbek dialektologiyasi oldida turgan muammolar haqida fikr yuritilgan. O‘zbek tili sheva, dialekt, lahjalarining O‘zbekiston viloyat va tumanlari hududlarida, qo‘shni respublikalar viloyat va tumanlari hududlarida tarqalishi, ularning mushtarak va farqli tomonlari tahlilga tortilgan. O‘zbek tili sheva va dialektlarining O‘zbekiston Respublikasi viloyat va tumanlarida tarqalish areallarining xaritasi uchta lahja – qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘yz asosida chizilgan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy dialektologiya, zamonaviy dialektologiya, adabiy til, jonli so‘zlashuv tili, xarita, milliy til, singarmonizm, artikulyatsiya, labializatsiya.*

В статье рассматривается диалектология, узбекская диалектология, ее современное состояние и проблемы, стоящие перед узбекской диалектологией, которая считается первой отраслью языкознания. Анализируются распространение диалектов и говоров узбекского языка в областях и районах Республики Узбекистан и в областях и районах соседних республик, аспекты их сходства и различия. Карта ареалов распространения диалектов и говоров узбекского языка в областях и районах Республики Узбекистан составлена на основе трех диалектов – карлук-чигиль-уйгурского, кыпчакского, огузского.

Ключевые слова*: историческая диалектология, современная диалектология, литературный язык, живой разговорный язык, карта, национальный язык, сингармонизм, артикуляция, лабиализация.*

So‘nggi yillarda mutaxassislar tomonidan dunyoda olti mingdan ziyodroq millat, elat, qavm, qabila va urug‘larning tillari mavjudligi e’tirof etilmoqda. Dunyoda hech bir til yoki millat yo‘qki, u yangi, o‘n yil, ellik yil avval paydo bo‘lgan bo‘lsa. Insoniyatning tili insonning paydo bo‘lishi bilan va, albatta, uning ong-shuuri bilan chambarchas bog‘liq desak, xato bo‘lmas. “Inson qachon paydo bo‘lgan?”, “Uning tili qachon paydo bo‘lgan?” degan savollarga aniq javob berish qiyin, qiyingina emas, iloji yo‘q. Odam Ato va Momo Havo yerga tushirilganda hech qanday “odamsimon maymun” (Ch.Darvin) emas, mukammal lison-zabonga ega, “sharif va latif” (Alisher Navoiy) inson edilar. O‘sha zamonlardan boshlab insonlar ko‘payib, turli urug‘, qabila, qavm, elat va millatlarga ajralgan, turli til va shevalarga ega bo‘lgan insoniyatga aylandi. Insoniyatning muhim belgisi, hech shubhasiz, uning tili ekanligi hech kimga sir emas. Insoniyatning birlamchi tili – ona tili, onasining tili sanaladi, inson onasining tili o‘z millat (milliy, tubjoy aholi, aborigen) tili shevasiga asoslanadi. Milliy til o‘z shevalaridan material olib rivojlanadi, milliy tilning oliy bosqichi adabiy til hisoblanadi, sheva (lahja, dialekt)lar adabiy til uchun empirik (amaliy) baza sifatida xizmat qiladi.

Adabiy tilning shevalarini o‘rganuvchi tilshunoslikning sohasi dialektologiya [1. B. 72–74; 2. B. 32; 3. B. 5; 4. B. 21] deb yuritiladi. Dialektologiya tilshunoslik fanining eng to‘ng‘ich sohalaridan biri hisoblanadi. Jahon tilshunosligi tarixida, xususan, dialektologiya tarixida o‘zbek tilshunosligi Mahmud Koshg‘ariy sababidan qadimiy tilshunoslik sanaladi. O‘zbek tilshunosligining to‘ng‘ich asari va o‘zbek tili dialektologiyasiga bag‘ishlangan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” fundamental asariga buyuk turkolog va sharqshunoslarning bergan baho va e’tiroflari fikrimizni tasdiqlaydi. Turkolog A.M.Shcherbak: “Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”iga na materialning hajmi, na muallifning filologik bilimi jihatidan bas keladigan biron asar yo‘q. “Devon”ning lug‘at deb atalishi uning asl mohiyatiga uncha mos kelmaydi. Bunda turkiy tillar grammatikasidan juda keng ma’lumot bor. Yana unda turkiy tillar leksikasi, fonetikasiga, qabilalarning joylashish xususiyatlari,

geografiyasiga doir ma'lumotlar mavjud" [5. B. 29] deb ta'kidlaydi.

Mashhur sharqshunos P.K.Juze shunday yozadi: "Dadil aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida) Rossiya va Sharqda o'rganilgan turkiy tillar fonetikasi hamda etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va o'rganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda ham, shon-sharaf bo'lardi. Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli "Turkiy qomusdir" [6. B. 42].

Mahmud Koshg'ariyning o'zi o'z asari haqida, ushbu asarning yozilish tarixi haqida shunday yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibidagi hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim, qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong'i joylarini yoritdim. Bu ish ustida so'zlarni o'z joyiga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so'zlarni o'z joyida qo'llaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim. Kitobni sakkiz asosiy bo'limda chekladim... Har bir bo'limni otlar (ismlar) va fe'llar tarzida ikki qismga ajratib berdim. Otlarni oldin, fe'llarni esa otlardan keyin o'z sirasiga qarab boblarga ajratib, o'z o'rnida oldinma-ketin ko'rsatdim. Tushunilishi oson bo'lishi uchun asarda arabcha istilohlar (termin) qo'lladim. Kitobni tuzish oldidan Halil ibn Ahmadning "Kitob ul-ayn" asarida tutgan tartibni qo'llash, iste'moldan chiqqan so'zlarni ham bera borish fikri tug'ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi otdek teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatidan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarning foydalanish masalasiga asoslandim. Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir" [6. B. 28; 7. B. 24].

Tarixiy dialektologiya mahalliy sheva va lahjalarning grammatik bazasidagi tadrijiy o'zgarishlar, ularning kelib chiqishi, qardosh va yondosh tillarning o'zaro ta'siri va shu kabi masalalarni tahlil qiladi. Masalan, eng qadimgi turkiy til davri (O'rxun-Enisey), qadimgi turkiy til davri (Mahmud Koshg'ariy), eng qadimgi o'zbek tili davri (Alisher Navoiy), eski o'zbek tili davri (Abdulla Qodiriy), o'zbek tili davri (Oybek), hozirgi o'zbek tili davri. Qadimda turkiy tilda tub to'rtta unli tovushning mavjud bo'lgan, ularning o'z juftlari (oldi-orqa, lablangan-lablanmagan, tor-keng) bo'lgan, geografik qo'shni fors-tojik tilidan keng "o" unlisining o'zbek tiliga kirib kelishi uning vokalizm tizimida, o'zbek tili undosh tovushlarining ham jarangli-jarangsiz juftilari mavjud bo'lgan, arab (ع "ayn", خ "he", ص "sod"), mo'g'il (G' "g'u"), fors (و "lab-tish", ڤ "lab-tish", ژ "sirg'."), rus (Ts "ts", V "lab-tish, F "lab-tish") tillaridagi ba'zi undosh tovushlarning kirib kelishi o'zbek tilining konsonantizm tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Bu o'zgarishlar, birinchi navbatda, mahalliy sheva va lahjalarda o'z aksini topdi. Muayyan til shevalardagi ushbu jarayon bilan bog'liq masalalarni o'rganish mazkur til tarixi va millat tarixi, madaniyatini o'rganish bilan barobardir.

Zamonaviy dialektologiya amaliy ahamiyat kasb etadi, mahalliy sheva va lahjalarning bugungi holatini geografik joylashuvi (qo'shni qardosh va yondosh tillarning ta'siri) va ijtimoiy xoslanishi (pragmatik, kasb-hunar ta'siri) nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Masalan, qo'shni Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog'iston tillarining yonma-yon joylashgan o'zbek tili mahalliy sheva va lahjalariga ta'siri, tog'li hududlarda, cho'l hududlarida, daryobo'yi, suv havzali hududlarda joylashgan yoki muayyan kasb-hunarga xoslangan – ovchilik, baliqchilik, chorvachilik, dehqonchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, ko'nchilik, konchilik, temirchilik, savdo... – mahalliy sheva vakillari shevalarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Dialektologiya jonli xalq tilini o'rganadi. Dialektologiyaning o'rganish obyekti, hech shubhasiz, so'z hisoblanadi. So'z makon va zamonda mavjud bo'ladi, u, birinchidan, adabiy tilda yoki dialekt tizimida yashaydi, ikkinchidan, zamonaviy tilning sinxron yoki diaxron taraqqiyot aspektida (zamon qatlamlari variantlarida) namoyon bo'ladi [10. B. 163]. Til tarixi bilan shug'ullanuvchilar ham, zamonaviy tilshunoslik bilan shug'ullanuvchilar ham adabiy tilni dialektal tildan ustun qo'yishadi. Mantiqan aytganda, dialektal til qadimiyroq va ustunroq, adabiy til dialektal tildan material oladi va shu asosda unga nazariya beradi. Adabiy til bilan dialektal til qarama-qarshiliklar birligi va yig'indisi sifatida to'liq yoki chuqur o'rganilgan emas, shunday bo'lsa-da, ularning quyidagi differensial belgilarini ko'rsatish mumkin.

№	Adabiy til	Dialekt
1.	Davlat va milliy tushuncha	Mahalliy tushuncha
2.	Me’yorlashgan	Me’yorlashmagan
3.	Ikkilamchi sinxron kategoriyalar namoyon bo‘ladi.	Dastlabki, diaxron kategoriya bo‘ladi
4.	Kategoriyalar taraqqiy etadi. Eskirgan yoki yo‘qolayotgan kategoriyalar	Eskirgan yoki yo‘qolayotgan
5.	Badiiy va ilmiy-siyosiy tushunchalar	Badiiy va ilmiy-siyosiy tushunchalar yo‘q
6.	Adabiy til uslublari bo‘ladi	Adabiy til uslublari bo‘lamaydi.
7.	Ilmiy yoki yarim ilmiy so‘zlar bo‘ladi	Ilmiy so‘zlar kam yoki mahalliylashadi

Adabiy til bilan dialektal tilning tabiiy (organik) birligi har ikkisining ham ijtimoiy xarakterdagi til sistemasiga mansubligi bilan tavsiflanadi. Adabiy til bilan dialekt o‘rtasida adabiy-dialektal oraliq kategoriya, regional til, poludialekt (shahar shevasi), sotsial dialektlar mavjud bo‘ladi.

Dialektologiya o‘z oldiga quyidagi vazifalarni o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi:

1) milliy tilda mavjud sheva va dialektlarning o‘ziga xos fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sath xususiyatlarini tahlil qilish;

2) milliy tilning paydo bo‘lish o‘rni, uning taraqqiy-tadrijiy bosqichlari va unda sheva, dialektlarning o‘rni;

3) milliy tilning shakllanishiga asos (hukmron) shevalarning grammatik sathlararo ulushini belgilash;

4) milliy til shevalarining o‘zaro ichki va tashqi (qo‘shni davlatlardagi shevalar) munosabatini aniqlash;

5) milliy til shevalarining areallashuv (kontakt va distankt) sabablarini o‘rganish;

6) milliy til shevalarining dialektal xaritasini tuzish.

Dialektologiya ma’lum bir hududda yashovchi millat, elat, qavm vakillarining dialektini o‘rganadi. Millat yashayotgan geografik hudud ichki chegaraviy (viloyat, tuman, mahalla fuqarolar yig‘ini, qishloq, mahalla) bo‘linganligidan dialektlar ham ichki bo‘linishga – shevalarga bo‘linadi. Turkolog olim A.M.Shcherbak ta’biri bilan aytganda, o‘zbek tili turkiy qavm tillari ichida eng ko‘p shevali til hisoblanadi. O‘zbek dialektologiyasi O‘zbekiston hududida yashovchi o‘zbek millati va qo‘shni mamlakatlarda (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog‘iston va boshqa) yashovchi o‘zbek millat, elat, qavm, urug‘ vakillarining shevasini o‘rganadi [3. B. 31–42]. Sheva ma’lum hududda yashovchi muayyan millat vakillari tilining fonetik, leksik, grammatik jihatdan o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi. Lahja kichik-kichik hududlardagi qo‘shni (hududiy yaqin) shevalarning yig‘indisi, dialekt ilmiy atama sifatida sheva va lahjalarning o‘rnida yoki ularning umumlashmasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Hozirgi o‘zbek adabiy tili 1) qorluq-chigil-uyg‘ur, 2) qipchoq, 3) o‘g‘uz lahjasiga bo‘linadi [3. B. 29–42].

Qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasi O‘zbekistonning barcha regionlarini va qo‘shni mamlakatlarning ba’zi o‘zbek dialektlarini o‘z ichiga oladi. Asosan, Farg‘ona vodiysining Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qirg‘izistonning O‘sh, O‘zgan, Jalolobod, Botkent, Tojikistonning Sug‘d, Qo‘rg‘ontepa viloyatlarining (Xo‘jand, Asht, Konibodom, Isfara), Janubiy Qozog‘istonning Chimkent shahri, Jambul viloyati, “j” lovchi-qipchoq shevalaridan tashqari, Angren, Parkent, Piskent, Qoraxitoy shevalarini, Sirdaryo viloyati Xovos, Jizzax shahar shevasini, Qashqadaryo viloyatidagi “j”lovchi-qipchoq shevalaridan tashqari, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, G‘uzor, Dehqonobod shevalarini, Samarqand shahri va janubiy tumanlari –Toyloq, Urgut, Kattaqo‘rg‘on, Poyariq, Pastdarg‘om, Surxondaryoning Uzun, Oltinsoy (Qarluq qishlog‘i) tumanlari shevalarini o‘z ichiga oladi.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining o‘ziga xos xususiyatlari.


Fonetik jarayonlar:

So‘zlarning oxiridagi Q/k – G‘/g: *QuruQ – QuruG‘, sariQ – sariG‘, qipchoq va o‘g‘uz shevalarida Quri, Sari;*

Oshni-oshshi, oldi-olli, tolni-toldi, devor-devol, besh so‘m-besso‘m, tuzsiz-tussiz;

Maktab-maxtab, to‘qson-to‘xson, sakson-saxsan, kitoblar-kitobla.

Leksik jarayonlar:



Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi so‘zlari umum-o‘zbek tili lug‘at fondining asosiga kiradi. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi so‘z boyligining katta qismini arab, fors so‘zlari tashkil qiladi, ayniqsa, bu holat Samarqand-Buxoro guruh dialektlarida yaqqol bilinadi.

Chumoli – mo‘rcha, buzoq – go‘sala, so‘zanak – tottonak.

Morfemik jarayonlar*:*

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi *-ning* bilan tushum kelishigi qo‘shimchasi *-ni* o‘zaro farqlanmaydi. *Kitobning varag‘i – kitobni varag‘i.*

O‘zbek adabiy tili hozirgi zamon qo‘shimchasi *-yapti* Toshkent shevasida *-votti*, Namangan shevasida *-utti*, Farg‘ona shevasida *-ish-yapti,* Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand shevasida *-opti.*

Toshkent va Farg‘ona vodiysi shevalarida qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi so‘zlarining ma’no jozibadorligi, sinonimik darajalanishi yuqori hisoblanadi. So‘z o‘yinlari, aytishuvlar, laparlar, askiya va turli payrovlar Toshkent va Farg‘ona vodiysi shevalarida yuksak darajada chiroyli ijro etiladi.

Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo guruh shevalarida xalq dostonlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘ziga xos ohang va jozibada ijro etiladi.

Samarqand-Buxoro guruh shevalarida og‘zaki so‘zlashuv uslubining forscha-o‘zbekcha bilingvistik akkomodatsiyasi sheva vakillari nutqiga o‘ziga xos jozibadorlik baxsh etadi.

Qipchoq lahjasi Toshkent viloyatining Ohangaron, Oqqo‘rg‘on, Piskent tumanlarini, Namangan viloyatining Uychi, To‘raqo‘rg‘on tumanlarini, Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Jomboy, Ishtixon, Qo‘shrabot, Paxtachi tumanlarini, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Qamashi tumanlarini, Surxondaryo viloyatining Uzun, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Oltinsoy, Sho‘rchi, Muzrabot, Qiziriq tumanlarini o‘z ichiga oladi va Jizzax, Navoiy viloyati, Qoraqalpog‘istonning ba’zi tumanlarida ham mavjud.

Qipchoq lahjasining o‘ziga xos jihatlari.

Fonetik jarayonlar:

Unlilar o‘zaro qarshilanadi va singarmonizm hodisasi mavjud bo‘ladi: *A – Ä, И – Ы, O – Ө, У – Ӱ;*

Anlaut unlilar diftongizatsiyaga uchraydi*: E, O, Ө;*

“J” lovchi shevalarda anlaut “*y” “dj*”ga o‘tadi, *yaxshi – djaxshi*;

So‘z oxiridagi K, Q undoshlari tushib qoladi: *kichik – kichi, achchiq – achchi, sariq – sari;*

G‘ undoshi *V* undoshiga, *G* undoshi *Y* undoshiga almashadi: *og‘iz – oviz, tagi – tiyi;*

Qaratqich, tushum kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilayotgan so‘zning oxirgi undoshiga assimilatsiyalashadi: *kitobni – kitobdi, otni – otti, tolni –tolli, oshni – oshshi;*

Qipchoq shevasining katta qismiga “O”lash xos, Farg‘ona qipchoqlarida esa “A”lash va singarmonizm hodisasi mavjud. *Loy – lay, choy – chay.*

Leksik jarayonlar:

Samarqand va Jizzax viloyati shevalarining o‘ziga xos so‘zlari: *qallaq – chuqurlik, angar – dala, satil – chelak, olashaqshaq – zag‘izg‘on, moy – yog‘, buvak – chaqaloq, taqsimcha – lagan. jalama – shavla.*

Qipchoq shevasi otchilikka oid terminlar, ot turlari nomlariga boy sheva hisoblanadi*: qulun, kaltatoy, g‘unon, do‘non, to‘ri, jiyron, bo‘z, ola, tarlon.*

O‘g‘uz lahjasiga Xorazm viloyati, Buxoro viloyatining Qorako‘l, Olot tumanlari, Janubiy Qoraqalpog‘istonning Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari, Turkmanistoning Toshavuz, Lubob viloyatlari, Janubiy Qozog‘istonning Iqon-Qorabuloq, Qoramurt viloyati dialektlari kiradi.

O‘g‘iz lahjasining o‘ziga xos xususiyatlari.

Fonetik jarayonlar:

T undoshi *D* undoshiga, *K* undoshi *G* undoshiga o‘tadi*: томир – домир, керак – герак.*

Qisqa va cho‘ziq undoshlar farqlanadi: *I – Ï, A – Ä:, U – Ü: (at –hayvon, a:t – ism, al – olmoq, a:l – alvon, qizil).*

Anlaut *K, T*: undoshlari ohangdoshlashadi: *ko‘z – go‘:z, tish – di:sh, tol – da:l.*

B va *M* tovushlari almashinadi: *bayram – mayram, murch – burch.*

A tovushi *E* tovushiga almashtiriladi: *Karim – Kerim, Salim – Selim.*

Morfologik jarayonlar:

Hozirgi zamon *-yapti* shakli *-yatirga* almashadi: *kelyapti – kelayatir, boryapti – borayatir*.

Kelasi zamon *-a* shakli *-jak* ga almashadi: *boradi – borajak, keladi –kelajak*.

Kelasi zamon maqsad shakli *-aylik -ali*ga almashadi: *ketaylik –getalik, boraylik – boralik, yozaylik – yozalik.*

Jo‘nalish kelishigi *-ga* shakli *-a* ga aylanadi, *-gacha -dong* bilan almashadi: *yarim axshamadong o‘tirdik, gechadong ishladik – yarim kechgacha o‘tirdik, yarim kechagacha ishladik.*

Orttirma nisbat qo‘shimchalari *-tir, -qiz -ir* ga almashadi: *yotqiz –yatir, bostir – basir*.

Shaxs otini yasovchi *-do‘z, -soz* kabi qo‘shimchalar *-chi* shaxs otini yasovchi qo‘shimcha bilan almashtiriladi: *aravasoz – aravachi, etikdo‘z – etikchi.*

Muxtasar aytganda, o‘zbek tilining lahja, dialekt, sheva va ichki shevalari “bobo turk daraxtining shox va shoxchalari” hisoblanadi.

Yuqorida qayd qilingandek, o‘zbek tilshunosligining to‘ng‘ich sohasi sanalmish o‘zbek dialektologiyasi, professor B.Mengliyev ta’biri bilan aytganda, reanimatsiyaga tushib qoldi. Integratsion jarayonlarning rivojlanishi, axborot kommunikatsion vositalarning ko‘payishi, hukmron tillarning vujudga kelishi, substrat va suferstrat hodisalarning ro‘y berishi, bilingvistik faktorlarning jadallashuvi o‘zbek dialektologiyasining bugungi holatiga sabab bo‘ldi, bugungi dialektologiya masalalari mutaxassislar diqqat markazidan chetda qoldi. Muayyan tilning dialektologiyasida millatning millatlik ko‘rsatkichlarini ifodalovchi tarixi, etnografiyasi, ma’naviyati, madaniyati, ijtimoiy turmush tarzi o‘z aksini topadi.

Adabiyotlar:

1. Русский язык. Энциклопедия /Гл. ред.: Ф.П.Филин. – Москва: Советская энциклопедия, 1979. – 432 с.

2. *Ҳожиев А*. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.

3. *Решетов А., Ш.Шоабдураҳмонов*. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 232 б.

4. *Ражабов Н*. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 304 б.

5. *Щербак А.М.* Грамматический очерк языка тюркских текстов X – XIII вв. из Восточного Туркестана. – Москва-Ленинград: Изд-во Академии наук СССР, 1961. – 203 с.

6. *Нурмонов А.* Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.

7. *Звегинцев В.А.* История арабского языкознания. Краткий очерк. – Москва: КомКнига, 2007. – 80 с.

8. *Кошғарий М.* Девону луғотит турк. III томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – 500 б.
9. *Ахманова О.С.* Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – Москва: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
10. *Степанов Ю.С.* Основы общего языкознания. – Москва: Просвещение, 1975. –271 с.
11. *Гаджиева Н.З*. Проблемы тюркской ареалной лингвистики. Среднеазиатский ареал. – Москва: Наука, 1975. – 302 с.
12. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований / Отв. ред. Б.А.Серебренников. – Москва: Наука, 1973. – 319 с.
13. *Эдельман Д.И.* Основные вопросы лингвистической географии(на материале индоиранских языков. – Москва: Наука, 1968. – 115 с.

DIALECTOLOGICAL STRUCTURE OF THE UZBEK LANGUAGE

Ziyoidin M. Kodirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 109-115.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: historical, contemporary dialectology, literary language, conversational language, map, national language, singormanism, articulation, labialization.

The article discusses dialectology, Uzbek dialectology, its current situation and the problems facing Uzbek dialectology, which is considered the first branch of linguistics. Distribution of dialects and dialects of the Uzbek language in the regions and districts of the Republic of Uzbekistan and in the regions and districts of the neighboring republics, their common and different aspects are analyzed. The map of distribution areas of dialects and dialects of the Uzbek language in regions and districts of the Republic of Uzbekistan is drawn based on three dialects – Qarluq-Chigil-Uyghur, Kipchak, Ogyz.

The Qorluq-Chigil-Uighur dialect includes all regions of Uzbekistan and some Uzbek dialects of neighboring countries. Mainly, Andijan, Namangan, Fergana of the Fergana valley, Osh, Ozgan, Jalalabad, Botkent of Kyrgyzstan, Sughd Korgontepa regions of Tajikistan (Khojand, Asht, Konibodom, Isfara), Khymkent city of South Kazakhstan, Jambul region, except for “J” Luchi – Kipchak dialects, Angren, Parkent, Piskent, Karakhitay dialects, Syrdarya region Khavos, Jizzakh city dialect, except for the “J” Luchi – Kipchak dialects of Kashkadarya region, Karshi, Shahrisabz, Kitab, Yakkabog, Guzor, Dehganabad dialects, Samarkand city and southern districts Toyloq, Urgut, Kattakurgan, It includes dialects of Poyarik, Pastdargom, Uzun, Altinsoy (Karluq village) districts of Surkhandarya.

The Kipchak dialect covers Ohangaron, Akkurgan, Piskent districts of Tashkent region, Uychi, Torakurgan districts of Namangan region, Bulung’ur, Jomboy, Ishtikhan, Koshrabot, Pakhtachi districts of Samarkand region, Chirakchi, Kamashi districts of Kashkadarya region, Uzun, Jarkurgan, Kumkurgan, Altinsoy, Shorchi of Surkhandarya region, It includes the districts of Muzrabot, Kyziriq, and also exists in Jizzakh, Navoi region, and some districts of the Republic of Karakalpakstan.

In short, dialects, dialects, dialects and words of the Uzbek language are “branches and branches of the grandfather Turkish tree”.

As mentioned above, Uzbek dialectology, which is the first branch of Uzbek linguistics, has fallen into revival, according to Professor Mengliev. The development of integration processes, the increase of information and communication tools, the emergence of dominant languages, the occurrence of substrate and superstrate phenomena, the acceleration of bilingual factors have caused the current state of Uzbek dialectology, or it would be safe to say that today’s issues of dialectology have been left out of the focus of experts. The history (in the literal sense), ethnography, spirituality, culture, and social lifestyle of a nation, which represent national characteristics, are reflected in the dialectology of a particular language.

References:

1. Filin, F.P. (1979) *Russkij yazyk. Enciklopediya* [Russian language. Encyclopedia]. Moscow: Sovetskaya enciklopediya.

2. Hojiev, A. (1985) *Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati* [An explanatory dictionary of linguistic terms]. Tashkent: O‘qituvchi.

3. Reshetov, A., Sh.Shoabdurahmonov. (1978) *O‘zbek dialektologiyasi* [Uzbek dialectology]. Tashkent: O‘qituvchi.

4. Rajabov, N. (1996) *O‘zbek shevashunosligi* [Uzbek dialectology]. Tashkent: O‘qituvchi.

5. Shcherbak, A.M. (1961) *Grammaticheskij ocherk yazyka tyurkskih tekstov X-XIII vv. iz Vostochnogo Turkestana* [A grammatical outline of the language of Turkic texts of the 10th-13th centuries. from East Turkestan]. Moscow-Leningrad: Izd-vo Akademii nauk SSSR.

6. Nurmonov, A. (2002) *O‘zbek tilshunosligi tarixi* [History of Uzbek linguistics]. Tashkent: O‘zbekiston.

7. Zvegincev, V.A. (2007) Istoriya arabskogo yazykoznaniya. Kratkij ocherk [History of Arabic language. Kratki essay]. Moscow: KomKniga.

8. Koshg‘ariy, M. (1960) *Devonu lug‘otit turk* [Divani lugat at-turk]. In 3 volumes. Vol.1. Tashkent: Fan.

9. Ahmanova, O.S. (2004) Slovar’ lingvisticheskih terminov [Dictionary of linguistic terms]. Moscow: URSS: Editorial URSS.

10. Stepanov, Yu.S. (1075) *Osnovy obshchego yazykoznaniya* [Fundamentals of general linguistics]. Moscow: Prosveshchenie.

11. Gadzhieva, N.Z. (1975) *Problemy tyurkskoj arealnoj lingvistiki. Sredneaziatskij areal* [Problems of Turkic areal linguistics. Central Asian area]. Moscow: Nauka.

12. Serebrennikov, B.A. (ed.) (1973) *Obshchee yazykoznanie. Metody lingvisticheskih issledovanij* [General linguistics. Methods of linguistic research]. Moscow: Nauka.

13. Edel’man, D.I. (1968) *Osnovnye voprosy lingvisticheskoj geografii(na materiale indoiranskih yazykov* [Basic questions of linguistic geography (based on the Indo-Iranian languages]. Moscow: Nauka.

Muallif haqida ma’lumot:

QODIROV Ziyoidin Mamadiyevich – filologiya fanlari nomzodi. Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: z.qodirov1963@gmail.com